

Bugun akademik Jaloliddin Azimov tavallud topgan kun

J.A.Azimov 1938-yilning 10-martida Andijon shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. U 1954-yil o'rta maktabni tugatgach, 1954-1959-yillar mobaynida Samarqand shahridagi O'zbekiston qishloq xo'jalik instituti (hozirgi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti) Veterinariya fakultetida ta'lim olib, uni muvaffaqiyatli tamomladi. 1959-yildan O'zbekiston Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida o'z mehnat faoliyatini boshladi. 1961-yilda Moskvadagi akademik K.I.Skryabin nomidagi Butunittifoq gelmintologiya instituti aspiranturasiga o'qishga kirdi. 1963-yilda "O'zbekiston janubidagi qo'ylar gelmintlari va asosiy gelmintozlar dinamikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1964-1969-yillar mobaynida O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida, 1969-1978-yillarda O'zR FA Zoologiya va parazitologiya institutida katta ilmiy xodim, 1978-1989-yillarda Respublika parrandachilik ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlagan.

1986-yilda esa Moskvada akademik K.I.Skryabin nomidagi Butunittifoq gelmintologiya institutining ixtisoslashgan kengashida "Schistosomatida (Skryabin et Schulz, 1937) Azimov, 1970 turkumiga mansub trematodalarning ekologo-taksonomik tavsifi va qishloq xo'jalik hayvonlari oriyentobilgarsiozining oldini olishning biologik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olimga 1988-yilda professorlik ilmiy unvoni berildi. 2000-yilda esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi.

1989-1991-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti professori, 1991-yildan 2009-yilga qadar O'zR FA Zoologiya instituti direktori lavozimida ishladi. 2009-yildan hozirga qadar O'zR FA Zoologiya institutida bosh ilmiy xodimi lavozimida ishlab kelmoqda.

J.A.Azimovning serqirra ilmiy faoliyati uning respublika va xorij jurnallarida chop etilgan 1000 dan ortiq ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan. 35 dan ziyod monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi, jumladan, Odam va hayvonlar shistosomotidlari» (1975), "O'zbekiston sut emizuvchi hayvonlari gelmintlari" (1975), "Odam va hayvonlarning parazitlari - trematodalar" (1986), "O'zbekiston tog' ekosistemalari umurtqalilari gelmintlari" (1994), "Parazitologiya terminlarining izohli lug'ati (2007)", «O'zbekiston umurtqalilari parazitlari - trematodalar (tarkibi, harakatlanishi va bioekologiyasi) (2012)", "Parrandalar kasalliklari (ma'lumotnoma) (2012)", "Sut emizuvchilar trematodalari - oriyentobilgarsiyalar (2014)" va boshqalar asarlar mamlakatimiz va dunyo zoologlari tomonidan alohida qadrlanadi. Olimning "Parranda kasalliklari bo'yicha qisqacha ma'lumotnoma" kitobi 1987-yil Moskvada bo'lib o'tgan xalqaro kitoblar ko'rgazmasida faxrli o'rinni egallagan. Ustoz tomonidan ishlab chiqilgan 30 dan ziyod tavsianomalar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joriy qilingan. Shogirdlari bilan yaratgan "Hayvonlar shistosomozisi" (2019) ingliz tiliga o'girilib, Buyuk Britaniyaning nufuzli nashriyotida "Schistosomiasis of Animals in Uzbekistan" chop etilmoqda

J.A.Azimovning 1995-1998-yillar mobaynida Biologik xilma-xillikning saqlash Milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiiq etishga qo'shgan hissasi hamda xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi yutuqlari va xizmatlarini e'tirof etgan qator Xalqaro tashkilotlar, fondlar o'z a'zosi etib saylagan. Jumladan:

Tabiatni muhofaza qilish Butunjahon ittifoqi a'zosi (IUCN,1997-y.);

Tabiatni himoya qilish Butundunyo fondi eksperti (WWF,1997-y.);

O'zbekistonda o'simlik va hayvonlar savdosi konvensiyasi ilmiy organi rahbari (CITES,1998-y.);

Migratsiya qiluvchi hayvonlarni saqlash konvensiyasi ilmiy konsultanti (CMS, 1998-y.);

Biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyasi a'zosi (CBD, 1998-y.);

Shistosomatidlar bo'yicha Yevropa komissiyasi a'zosi (ECS,2001 y);

Tabiatni muhofaza qilish Butunjahon ittifoqining O'zbekistondagi Mahalliy komiteti raisi (IUCN, 2002-y.);

Biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyasining O'zbekiston Respublikasidagi Mahalliy vakolatli koordinatori (CBD, 1999-y.).

